

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “4K” MODELINING QO‘LLANISHI

**Nizomiddinova Dildora Nosirovna**

Qo‘qon davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası v.b.dotsenti

**Xoshimova Ziyoda Rustamovna**

Qo‘qon davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich ta‘lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Zamonaviy ta‘lim ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozimligini taqazo etadi. Ta‘limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri “4K” modelidir.

**Kalit so‘zlar:** 4K modeli, boshlang‘ich ta‘lim, bilim, ko‘nikmalar, ijodkorlik, xarakter, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ta‘lim

**Annotatsion:** Primary education is the most important stage in the period of personality formation. Modern education requires that students be guided to independent and creative thinking in native language lessons. Educational reform is associated with the introduction of new innovative methods into the system. One of such approaches is the “4K” model.

**Keywords:** 4K model, primary education, knowledge, skills, creativity, character, collaboration, communication, creative thinking, critical thinking, education

**Аннотация:** Начальное образование – важнейший этап в периоде формирования личности. Современное образование требует развития самостоятельности и творческого мышления учащихся на уроках родного языка. Реформа образования связана с внедрением в систему новых инновационных методов. Одним из таких подходов является модель «4К».

**Ключевые слова:** модель «4К», начальное образование, знания, умения, креативность, характер, сотрудничество, коммуникация, творческое мышление, критическое мышление, образование

Boshlang‘ich ta‘lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi. Chunki, bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e‘tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta‘lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. Bola aynan shu davrda olgan bilimlari unga kelajakda har bir ishida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababli bugungi kunda ko‘plab pedagog olimlar tomonidan turli xil metodlar ishlab chiqilmoqda. Shu metodlardan biri boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlangan “4K” modeli hisoblanadi. “4K” modeli ta‘lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta‘lim tizimida “4K” modelidan foydalanishda o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan hisoblanadi.

Ushbu model to‘rt muhim bosqichdan iborat:

❖ **Kollaboratsiya**– hamkorlik ya’ni o‘quvchining jamoada ishlash ko‘nikmasini oshirish uchun qaratilgan bosqich bo‘lib, topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishni shakllantirishdir.

❖ **Kommunikativlik** – muloqot qilish qobiliyati, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir. Bunda har bir o‘quvchi o‘zgalarni tinglash va o‘z fikrlarini erkin bayon etishni yo‘lga qo‘yadi. Bugungi kunda juda ko‘p o‘quvchi yoshlar o‘z fikrlarini bayon etishga juda ham qiynalishadi. Ayniqsa omma oldida so‘zga chiqish hozirgi ba’zi o‘quvchilarning asosiy muammosidir, ushbu muammoni kommunikativlik orqali boshlang‘ich ta’limdayoq bartaraf etish mumkin.

❖ **Kreativ fikrlash** – ijodiy fikrlash o‘quvchini robot yoki sun’iy intellektdan ko‘ra farqlab turuvchi asosiy faktor ya’ni omil hisoblanadi. Sababi robot yoki moshinalar fikrlash ijod qilish imkoniyatiga ega emas. Ular faqatgina o‘zlariga biriktirilgan dastur orqali qo‘llaniladi xalos. Unda inson faktori yetishmaydi. Shu sababli o‘quvchilarni yoshligidan boshlab kreativ fikrlashga o‘rgatishimiz darkor. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

❖ **Tanqidiy fikrlash** – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Har bir shaxs o‘zida tanqidiy fikrlashni shakllantirishi kerak bo‘ladi. Muammo va yechimni bir tarafdin emas har taraflama ko‘rish kerakligiga o‘rgatadi

Har bir yo‘nalishda bo‘lgani kabi ushbu modelda ham o‘ziga yarasha afzallik va kamchiliklari mavjud.

#### **4K modeling afzalliklari**

4K modeli 21asr uchun jihozlangan har tomonlama rivojlangan shaxslarni shakllantirishda ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi.

➤ **Bilim:** Chuqurroq o‘rganish: 4K modeli yuzaki tushunishdan tashqariga chiqadi, tanqidiy fikrlash va tahlilni targ‘ib qiladi. Talabalar ma’lumotlar bilan faol shug‘ullanadilar, aloqalarni o‘rnatadilar va bilimlarni real dunyo senariylariga qo‘llaydilar. Integratsiyalashgan o‘quv rejasi: bo‘linadigan fanlar o‘rniga, 4K modeli fanlararo o‘rganishni rag‘batlantiradi. Turli sohalardagi tushunchalar bir-biriga bog‘lanib, yaxlit tushunishni rivojlantiradi va sun’iy to‘siqlarni yo‘q qiladi.

➤ **Ko‘nikmalar:** Uzluksiz ta’lim: 4K modeli doimo o‘zgarib turadigan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalarga ustunlik beradi. Muammolarni hal qilish, muloqot qilish, hamkorlik va moslashuvchanlik ikkinchi tabiatga aylanib, o‘quvchilarni dinamik kelajakka tayyorlaydi.

➤ Texnologiya integratsiyasi: 4K modeli texnologiyani passiv ko‘ngilochar manba emas, balki o‘rganish vositasi sifatida qamrab oladi. Talabalar tadqiqot, muloqot va ijodiy ifoda uchun uning kuchidan foydalanishni o‘rganadilar.

➤ Ijodkorlik: 4K modeli tasavvur va turli xil fikrlashni rivojlantiradi. Talabalar tajriba, savol va yangi g‘oyalarni o‘rganishga da‘vat etiladi, bu esa innovatsiyalar va muammolarni hal qilishda yutuqlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu model orqali o‘quvchi har taraflama o‘zida shaxs ko‘nikmasini shakllantirib boradi. Dastur o‘quvchiga faqat ta‘lim tomonlama emas balki, shaxsiy fikrlash doirasi, jamiyatdagi o‘rniga ham alohida ta‘sir etadi. 4K modeli nafaqat bolalarni o‘z navbatida o‘qituvchi pedagoglarni ham o‘z ustida ishlash uchun undab kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M. Boshlang‘ich ta‘limda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: 2021.

2. Karimova V.M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.

3. Xo‘jayev A. Innovatsion ta‘lim metodlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.